

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
<b>J.G.Numanova</b>	
The role of podcasts and audiobooks in language education .....	877
<b>J.G.Numanova</b>	
The influence of technological advancements on language assessment methods .....	881
<b>O.Z.Dadajonov</b>	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini .....	885
<b>S.A.Yusupova</b>	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels .....	890
<b>N.M.Merganova, N.A.Orifjonova</b>	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari .....	894
<b>G.A.To'lanboyeva</b>	
Muloqot va uning xususiyatlari .....	898
<b>S.A.Xaqnazarov</b>	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi .....	901
<b>N.M.Merganova</b>	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari .....	905
<b>C.X.Azimova</b>	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах .....	908
<b>N.A.Komilova</b>	
The representation of gender in English idiomatic expressions .....	911
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati .....	915
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar .....	919
<b>S.To'lanov</b>	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi .....	923
<b>S.To'lanov</b>	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv .....	927
<b>Y.U.Abdurazzakov</b>	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi .....	931
<b>I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova</b>	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari .....	934
<b>D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova</b>	
Challenges in translating Uzbek literature to English .....	938
<b>D.S.Usmonova, N.R.Rajabova</b>	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language .....	942
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi .....	946
<b>S.A.Xaqnazarov</b>	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana .....	949
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon yasovchi affikslaming o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari .....	953
<b>G.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limi tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi .....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi .....	961
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi .....	966
<b>S.I.Quziyev</b>	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalinish .....	970
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi .....	975
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
About the term of persuasion .....	979



UO'K: 82-1:398: 297.42(47+57)

**ALEKSANDR PAPAS ALISHER NAVOIYNING "MUHOKAMAT UL-LUG'ATAYN" ASARI  
HAQIDA: TASAVVUFUY YONDASHUV VA TILDAGI MAXFIY KODLAR**

**АЛЕКСАНДР ПАПАС О ПРОИЗВЕДЕНИИ АЛИШЕРА НАВОИ "МУХОКАМАТ УЛ-ЛУГАТАЙН": СУФИЙСКИЙ ПОДХОД К ИССЛЕДОВАНИЮ И ТАЙНЫЕ КОДЫ ЯЗЫКА**

**ALEXANDER PAPAS ON ALISHER NAVOI'S "MUHAKAMAT AL-LUGHATAYN": A SUFI APPROACH TO RESEARCH AND THE HIDDEN CODES OF LANGUAGE**

Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna 

Farg'onan davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrasini dotsenti

*Annotatsiya*

*Alisher Navoiyning fransuz muxlisilaridan biri bol'gan Aleksandr Papas Sharq tasavvuf falsafasi bo'yicha yetakchi mutaxassisidir. Papas Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asarini chuqur tahlil qilib, asarning murakkab va kodlangan tabiatiga haqida fikr bildiradi. U, asarda lingvistik asoslar va aniq mulohazalar kutayotgan o'quvchi uchun autobiografik xotiralar, tarbiyaviy hikoyalar va ilohiy xamdu sanolar uchrashini ta'kidlaydi. Papas, shuningdek, Naqshbandiya tariqatining asardagi ishoralarini tahlil qilib, risolaning tasavvufiy jihatlarini yoritadi. Uning tahlili Navoiy tilining nafaqat mulogot uchun, balki yaratganga hamdu sano aytish uchun yaratilganligini ko'rsatadi. Papasning ishlari, Navoiyning til va tasavvuf haqidagi g'oyalarini fransuz kitobxonasiga yetkazishga muvaffaq bo'ladi.*

*Annotation*

Французский поклонник Алишера Навои, Александр Папас, является ведущим специалистом по философии суфизма Востока. Папас глубоко анализирует произведение Навои "Мухокамат ул-лугатайн", отмечая его сложную и закодированную природу. Он подчеркивает, что в произведении, где читатель ожидает лингвистических основ и четких размышлений, встречаются автобиографические воспоминания, воспитательные истории и божественные хвалы. Папас также исследует намеки на тарикат Накшбандия в произведении и освещает его суфийские аспекты. Его анализ показывает, что Навои рассматривал язык не только как средство общения, но и как инструмент для прославления Создателя. Работы Папаса успешно передают идеи Навои о языке и суфизме французской аудитории.

*Abstract*

*A French admirer of Alisher Navoi, Alexander Papas, is a leading expert on Eastern Sufi philosophy. Papas deeply analyzes Navoi's work "Muhakamat al-Lughatayn," noting its complex and coded nature. He emphasizes that the work, where the reader expects linguistic foundations and clear reflections, contains autobiographical memories, educational stories, and divine praises. Papas also explores the references to the Naqshbandi order in the work, highlighting its Sufi aspects. His analysis shows that Navoi viewed language not only as a means of communication but also as a tool for praising the Creator. Papas' works successfully convey Navoi's ideas about language and Sufism to the French readership.*

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, Aleksandr Papas, Muhokamatul lug'atayn, Sharq tasavvuf falsafasi, Naqshbandiya tariqati, Irfoni manbalar, Lingvistik tahlil, Fors va turkiy adabiyot, Kodlangan til, Tilning ilohiy kelib chiqishi

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Александр Папас, Мухокамат ул-лугатайн, Восточная философия суфизма, суфийское братство Накшбандия, источники суфийского, Лингвистический анализ, Персидская и тюркская литература, Закодированный язык, Божественное происхождение языка

**Key words:** Alisher Navoi, Alexander Papas, Muhakamat al-Lughatayn, Eastern Sufi philosophy, Naqshbandi sufi sect, Sufi sources, Linguistic analysis, Persian and Turkic literature, Coded language, Divine origin of language

**KIRISH**

Alisher Navoiy – turkiy va forsiy adabiyotning eng buyuk shoirlaridan biri, uning ijodi keng miqyosda o'rjanigan va baholanayotgan asarlar qatoriga kiradi. Xususan, "Muhokamatul Lug'atayn" asari Navoiyning ijodida alohida o'r'in tutadi. Aleksandr Papas – fransuz sharshunosi va tasavvufshunos, ushbu asarni o'ziga xos tarzda tahlil qilgan. U Navoiy ijodiga o'ziga xos yondashuvni taklif etib, Navoiyning tasavvufiy g'oyalarini, xususan, Naqshbandiya tariqatining ta'sirini chuqur o'rganadi.

## MATERIALLAR VA USULLAR

Aleksandr Papas "Muhokamatul Lug'atayn" asarini tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy manbalardan foydalangan. U Orif Usmon, İşak Refet İştıman, Robert Devereux va F. Sema Barutçu Özönder kabi tadqiqotchilar tomonidan tayyorlangan nashrlarni chuqur o'rgangan va ularning mulohazalarini o'z tadqiqotiga asos qilib olgan. Ushbu manbalarning har biri uzoq muqaddima va aniq sharhlari bilan boyitilgan. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, adabiy tanqid metodlaridan foydalaniłgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Navoiyning fransuz muhlislaridan biri Aleksandr Papas Sharq tasavvuf falsafasi bo'yicha mutaxassis. Irfoniy manbalar ishqibozi bo'lgan olim, tariqat ahkomlari, shayh maqomining mas'uliysi, so'fiy vazifalari kabi masalalarni yoritar ekan, forsiy va turkiy adabiyotda tasavvifiy g'oyalarning ifodalanishi haqida ham ilmiy ishlar olib bordi. Mashrab hayoti va ijodi yoritilgan "Islomda tasavvuf va devonalik: uch qalandar so'fiyning portreti"<sup>43</sup> nomli monografiya, Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asari tahliliga bag'ishlangan "Alisher Navoiyning mahfiy ilmi: naqshbandiya irfoniy tili loyihasi"<sup>44</sup> nomli yirik hajmli maqolalari shular jumlasidan.

Navoiy asariga bag'ishlangan maqolada Papas shoirning ijodiga boshqa olimlardan ko'ra o'zgacharoq yondashadi. "... Navoiyning, asosan she'riy bo'lgan ko'p sonli asarlarining ichida eng ko'p o'rganilgan, eng uzoq tarixga ega va eng voqealarga boy asari, to'g'risini aytganda, she'riy matn emas"ligini<sup>45</sup>ta'kidlaydi. "Ikki til muhokamasi" asarini tadqiq etar ekan uning, Markaziy Osiyo adabiy janrlariga, hoh u turkiy-mo'g'ul bo'lsin, yoki arab-fors bo'lsin, hech bir an'analariga mos kelmaydigan g'alati tabiatni haqida fikr bildiradi. Qolaversa, o'quvchi lingvistik turdag'i asoslar va aniq mulohazarni kutayotgan bir pallada, hamma joyda avtobiografik xotiralar, tarbiyaviy hikoyalar, ilohiy xamdu sanolar uchraydi. Ularning har biri muntazam ravishda Naqshbandiya tariqati mavzusiga ishoralar bilan aralashib ketgan, biroq shayhul-isломning ismi asarning hech qayerida uchramaydi. Muxtasar qilib aytganda, "Muhakamat al-Lugatayn" o'quvchini kodlangan tildagi baxsga olib kiradi. Faqat tavakkalga asoslangan germenevtikagini bu g'ayrioddiy jarayonni asl masalalarini ochib berishi mumkin.

Papas, boshqa tadqiqotchilar e'tibor bermagan bir jihatni ta'kidlaydi. Yani, "Muhokama ..."ni tushunishni ikki nomutanasoblik yoki ziddiyat qiyinlashtiradi. Bir tarafdan, tillar haqidagi bahs va fors tiliga oid qator tanqidiy mulohazalar berilganligi bo'lsa, boshqa tarafdan, butun paragraflar, kitobning chetlariga naqsh qilingan yozuvlar, qolaversa, nazm va tasavvuf sohalariga bag'ishlangan bir necha o'rnlardagi fors tilini himoya qiluvchi mulohazalarning mavjudligi edi. Bunday ikkiyoqlamalikni e'tiborsiz qoldirish, tadqiqotchining fikriga ko'ra, "Muhokamatul lug'atayn"ning har qanday izchil talqinini rad etadi.

Mana shu murakkablikni anglash maqsadida, olim o'zidan avvalgi tilshunoslar tadqiqotlarini chuqur tahlil qiladi. Navoiy risolasining ko'plab nashrlari orasidan, to'rttasini saralab oldi, chunki ularning har biri uzoq muqaddima bilan boshlanib, aniq va muammoli sharhlarni taklif etadi. Papas, Orif Usman, İşak Refet İştıman, Robert Devereux va F. Sema Barutçu Özönder<sup>46</sup> kabi olimlar tomonidan taqdim etilgan nashrlarni tahlil qiladi, ularning mulohazalariga o'z fikrini bildiradi.

Barcha izohlarda asar haqida bir xil fikr keltirilgan, yani: a) turkiy tilning fors tilidan ustun ekanligi haqidagi da'vo; b) Navoiy buni o'zining turkiy adabiy asari misolida tasdiqlaydi. Barcha faktlar ikki nuqtaga assoslanadi: turkiy leksika fors tilidan muhimroqdir; turkiy tilda so'zlashuvchilar soni fors tilida so'zlashuvchilardan ko'ra ko'proqdir. Biroq, bu Navoiy nuqta nazarida keskin ziddiyatga olib keladi, chunki u turkiy bo'lmagan so'zlarini, asosan, arab va fors tillaridan foydalanishni davom etadi. Papas bu to'rt tafsifning katta nuqsoni, ular Navoiy matnini ma'lum bir dalillarga asoslanib muhokama qilmaganliklarida ekanligini dalillab ko'rsatadi. Tasavvufshunos olim

<sup>43</sup> Papas, Alexandre. *Mystiques et vagabonds en islam portraits de trois soufis qalandar*. PATRIMOINES Visages de l'islam. Paris, 2010. – 339p.

<sup>44</sup> Papas, Alexandre. La makhfî 'ilm ou science secrète de 'Alî Shîr Nawâ'î: le projet d'une langue mystique naqshbandî. Journal of the History of Sufism, (eds. Th. Zarcone, E. İşin, A. Buehler), Paris, J. Maisonneuve, 3, 2001, 1-22.

<sup>45</sup> Papas, Alexandre. La makhfî 'ilm ou science ... – P.1

<sup>46</sup> Arif Usman, Alisher Navaij. Muhokamatul Lughatajn, Tashkent, 1940.; şak Refet İştıman, Ali Şir Nevâ'i Muhâkamat ül-Lûgateyn. Büyük Şairin Beş Yüzüncü Doğum Yıldönümü Dolayısıyle. (À l'occasion du 500e anniversaire de la naissance du grand poète), Ankara, 1941.; Robert Devereux, Mir c Alî Shîr. Muhâkamat al-Lughatain, Leiden, 1966.; F. Sema Barutçu Özönder, c Alî Şir Nevâ'i. Muhâkemetü'l-Lûgateyn. İki Dilin Muhakemesi, Ankara, 1996.

## TILSHUNOSLIK

butun "Muhakamatul lugatayn" risolasini ketma-ket ikkita katta bo'limga taqsimlangan dalillar vositasida asoslab beradi:

"Adabiy va ma'naviy til" haqidagi risola sifatida:

1.1. Tilning ilohiy kelib chiqishi.

1.2. Arab, hind, fors va turkiy tillarning kelib chiqishi haqidagi afsonaviy hikoya.

1.3. Turk tilining adabiy xususiyatlariiga oid yetti formulalar turkumi, leksik ro'yxatlar, fors tiliga oid sharhlari.

"Irfoniy she'riyat haqida"gi risila:

2.1. Zamonaviy turkiy shoirlar tanqidi.

2.2. Adabiy va tashabbuskor avtobiografik asar.

2.3. Navoiy bibliografiyasi.

2.4. Buyuk fors so'fiy shoirlar panegirik she'riyati (ilohiy hamdu sanolari)

2.5. Ba'zi turkiy shoirlar haqida.

2.6. Risolaning irfoniy asoslari.

Maqolaning davomida, Papas Navoiyning Naqshbandiya tariqatiga munosabatini tahlil qiluvchi mulohazalar keltirgan. Naqshbandiya tariqati nomini hech bir yerda tilga olmay, "Muhokama ..."ning markaziy qismida buyuk so'fiy fors shoiri Abdurrahmon Jomiy shaxsiyatiga ta'rif berishda mazkur tariqatda ishora qiladi: "Yana bu, faqirning piri va ustoz, tariqat ahlining sohibi irdshodi, jami' ahlullohning muqtado va shayxul-islomi Hazrati Maxdumiy Nur-ul-millati vad-dini Mavlono Abdurrahmon Jomiyning ruhparvar-latoyifi va ruhgustar zaroyifikim, andin har g'azal «kal-vahyil-munzal» va har risola «kal-ahodisin-nabiyi mursal» oly shon va rafe makondurukim, alardin har lafz qiymatda durri zamindan obdorroq va hirqatda la'li otashindin barqikidorroq"<sup>47</sup>.

Fransuz sharqshunosi yuqorida reja asosida Navoiy risolasini mukammal tarzda tahlil qiladi. Navoiyning, til nafaqat muloqot uchun, balki yaratganga hamdu sano aytish uchun ham yaratilganligi, haqidagi g'oyalarini fransuz kitobxoniga tushunarli tarzda yetkazadi. Tasavvufda so'fiy Olloh bilan singib, yo'q bo'lib ketgani kabi, til ham she'riyatga singgib yo'qlikka aylanishi haqidagi farazlarni keltiradi.

Tasavvufshunos "badiiy qiyoslash va ma'naviy xususiyat o'tasida tebranuvchi" bir nechta elementlarni ta'kidlab o'tishni lozim ko'radi. Jumladan, *le derviche*, risoladagi *faqir* Navoiydan boshqa kishi emas va shu orqali u Jomiy bilan birodarlik yo'lida ekanligini yoki umumiy ma'nodagi so'fiy darajida ekanligini, bu holat butun risola davomida uchrashini talqin qilgan. O'z vaqtida shoir Naqshbandiy-shayh Jomiyning muridi bo'lganligini (816/1414-897/1492) va uning iltimosiga ko'ra Hirotda bo'lganligi (1476-77) ham eslab o'tgan. Boshqa tomonidan, Navoiy *les significations subtiles*, yani *nozik ma'nolar* (ruhparvar lato'if)ni zikr qilishni, matnlarning mahfiy ma'nolarini tushunish orqali tasavvufga kirishishni ustozidan meros qilib oladi. *La Voie – yo'l* (tarîqa), bu yerda yuqorida aytib o'tilgan Naqshbandiyani izohlagan. Navoiyning unga a'zoligi ham uning tarjimai holidan ma'lum bo'lgan faktdir. Bu yerda, o'zining so'nggi asarida shoir kodlangan tilning birinchi namunasini keltirgan, biroq bu risola davomida takrorlanuvchi tasavvufiy murojaatning namunasi hamdir. Bu murojaatda birinchi navbatda Jomiy siyosiga e'tibor qaratilgan.

Hofiz Sherziy va Amir Xusrav Dehlaviy kabi ikki mashhur shoiring g'ayritabiyy misralariga, *la Saveur* (châshnî) – lazzat, *le Destin* (nasîb) – Taqdir, *l'Amour essentiel* (öz 'ishq) – asl ishq, *ses Perfections* (kamâlâtî) – uning mukammalliklari (kamolati), *l'aboutissement de ses États mystiques* (nihâyat-i hâlâtî) kabi g'ayrioddiy so'fiyona tushunchalarni qo'shgan<sup>48</sup>. Tasavvufshunos ularning har birini va qayta-qayta o'qib chiqqan va o'rgangan.

Naqshbandiya tariqatidagi mahfiy kodlangan konseptlarni talqinidan so'ng Aleksandr Papas risolada keltirilgan shaxsiyatlarga e'tibor qaratgan. Bir nechta sultonlar, qator turkiy va forsiy shoirlar haqidagi yozilgan qaydlarni fransuz tilida talqin qilgan hamda munosabat bildirgan. Maqolaning uchinchi qismida Navoiyning Naqshbandiya tariqatiga kirish sababları, vaqtı va bu yo'ladi manaviy o'sishi haqidagi satrlarni tadqiq qilgan. Uchinchi qism risolada keltirilgan turkiy va forsiy tillar qiyosiga bag'ishlangan qaydlarni o'z ichiga oladi. Va niyoyat, maqolaning so'nggi qismida Papas o'z maqsadiga ko'chadi.

<sup>47</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-muhokamat-ul-lugatayn.html>

<sup>48</sup> Papas, Alexandre. La makhfi 'ilm ou science ... – P.8

"Navoiy o'zini darvesh, Jomiyning shogirdi, Naqshbandiyaga kirgan, faqat so'fiylik she'sriyati bilan band, forsiy ustozlarining buyuk bilimdoni, tasavvufiy vahiyga erishgan qilib ko'rsatib, Muhokamat ul-lug'ataynning tasavvufiy jihatini doimo eslatib turadi. Va nihoyat turkiy tilga kelsak, shoir o'zini maxfiy ilm muallifi va tasavvuf tilining yaratuvchisi sifatida tanishtiradi. Ammo risola hech qachon bunday deb e'lon qilinmagan, tasavvufning texnik atamasi ishlatilmagan yoki deyarli qo'llanilmagan, yozuv she'riy, elliptik, maxfiydir"<sup>49</sup>.

Til rasmiyatichilik ortiga yashirinadi va shu sababdan Navoiy Mahfiy ilm haqida gapiradi, chunki she'r niqobi ostida she'riyat asari yaratganda, , aslida, u o'zini o'zi inkor etadi, naqshbandiyaning inkor etish, o'zini juda past tutish qoidasiga mos ravishda har qanday ontologik urinishlar, shu jumladan til ham o'zini inkor qilish ta'sirida bo'ladi. Tilning mahfiy qoidalari tilni inkor qilishni sir saqlaydi va nutq paytida sukunatni tiklaydi. O'quvchi ko'ziga goh lingvistik, gohida esa badiiy asar bo'lib ko'ringan *Muxakamat ul-lug'atayn* esa, bu tilda bo'lgani kabi boshqa tilda yozilishi mumkin emas edi. Chunki bu tilda hech narsa deyarli hamma narsa haqida gapiradi<sup>50</sup>. Tariqat pog'onalaridan ilgarilayotgan so'fiy ham Haqiqatga erishgach yo'qlikka singgib ketadi.

### XULOSA

Papasning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, "Muhokamatul Lug'atayn" asarida Navoiy tillar haqida bahs olib borar ekan, ko'p joylarda fors tilini himoya qiluvchi mulohazalarni ham keltiradi. Papasning ta'kidlashicha, Navoiy asarida turkiy leksika fors tilidan muhimroq ekanligini ta'kidlagan bo'lsa-da, asosan, arab va fors tillaridan foydalanishni davom ettiradi. Papasning tahliliga ko'ra, "Muhokamatul Lug'atayn" asari tasavvufiy murojaatlar bilan to'lib-toshgan va unda Naqshbandiya tariqatining ta'siri sezilarli.

Papas, Navoiyning asarida tasavvufiy g'oyalari va Naqshbandiya tariqatining ta'sirini chuqr tahlil qiladi. U Navoiy tomonidan ishlatilgan til va tasavvufiy konseptlarni fransuz kitobxoniga tushunarli qilib yetkazadi. Papasning tadqiqotlariga ko'ra, Navoiy tilni nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki yaratganga hamdu sano aytish vositasi sifatida ham qaraydi. U Navoiyning she'riyatda tilni qanday ishlatganini, tasavvufiy va lingvistik murakkabliklarini batafsil ochib beradi.

Aleksandr Papas tomonidan olib borilgan tahlillar, "Muhokamatul Lug'atayn: asarining murakkab va kodlangan tabiatini ochib beradi. Papasning tadqiqotlari Navoiy asarida tilning ilohiy kelib chiqishi, adabiy va irfoniy til xususiyatlarini, Naqshbandiya tariqatining ta'sirini chuqr yoritadi. Ushbu tadqiqotlar, Navoiyning tasavvufiy g'oyalari va uning ijodini yanada chuqurroq anglashda muhim ahamiyatga ega.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

14. Papas, Alexandre. Mystiques et vagabonds en islam portraits de trois soufis qalandar. Patrimoines /Visages de l'islam. Paris, 2010. – 339p.
15. Papas, Alexandre. La makhfi 'ilm ou science secrète de 'Alî Shîr Nawâ'i: le projet d'une langue mystique naqshbandî. Journal of the History of Sufism, (eds. Th. Zarcone, E. İşin, A. Buehler), Paris, J. Maisonneuve, 3, 2001, 1-22.
16. Холбеков М. Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия). Дис.док.филол.наук. Ташкент,1991.– 424 с.
17. Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри. – Тошкент, 1986. – 666.
18. Erkinov A.. Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV-XX asr manbalari. Filologiya fanlari doktori... dissertatsiyasi. – T.: 1998. – 282 b.
19. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiiy/muhokamat-ul-lugatayn.html>

<sup>49</sup> Papas, Alexandre. La makhfi 'ilm ou science ... – P.23

<sup>50</sup> Papas, Alexandre. La makhfi 'ilm ou science ... – P.29